



## TALABALAR INTELEKTUAL SALOHIYATI NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Abdug'aniyev Akobir Akmaljon o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Jinoyatchilikka qarshi kurashish fakulteti  
"Tezkor-qidiruv faoliyati" mutaxassisligi 204-guruh kursanti*

Respublikamizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, mafkuraviy, madaniy sohalardagi islohotlar ta'lim-tarbiya tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Ta'lim tizimidagi yangilanishlar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" talablaridan kelib chiqqan holda, bozor iqtisodiyoti sharoitida zamonaviy kadrlarning erkin raqobatida sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashga karatilgan.

Respublikamizda tub demokratik o'zgarishlar yuz berayotgan bir davrda tabiiy ravishda, oldimizda insonparvar psixologiyaning qonuniyatlarini va ilmiy materiallarini o'rganish, ulardan o'z faoliyatimizda foydalanish vazifasi qo'yilmoqda. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida ta'lim-tarbiya oluvchi va beruvchi shaxslarning psixologik xususiyatlarini, ularda o'zaro munosabatlarning psixologik asoslarini o'rganish juda muhim masaladir. Hozirgi eng dolzarb muammolardan biri- oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya tizimlarida **talabalar ilmiy salohiyati** samaradorligini oshirishdir. Chunki respublikamizning rivoji, istiqboli ko'p jihatdan oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislarning mahoratiga, yuqori intellektual darajasiga bog'liqdir. Buning uchun esa biz talaba intellektning xususiyatlarini, uning taraqqiyoti dinamikasini aniqlashimiz zarur va bu borada o'qitishning faol, innovatsion, mukammalroq metodlarini qo'llashimiz hamda yangi vositalardan amaliyotda oqilona foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari oldiga sifat jihatidan yangi va nisbatan murakkab bo'lgan vazifalarni qo'yadi, bunda talaba kasbiy shakllanishida intellektning rivojlanish darajasi, axloqiy jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarda talabalar deganda, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va mutaxassislikka oid rollarni muayyan qoida, maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoiy guruh tushuniladi.

Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy etuklikning ro'yobga chiqishi, kasbiy shaxsiy sifatlarning shakllanishi hamda intellektual salohiyatni oshirishidir. Bunday etuklik shaxsdan zarur aqliy qobiliyatni, hayot va faoliyatda bajariladigan turli rollarni egallashni talab qiladi. Ayniqsa, mutaxassis sifatida kamolot topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Talabaning kasbiy shakllanishining professiogramma talablariga mos kelishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada qilingan ilmiy tadqiqotlar, izlanishlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, **jahon psixologiya fanida intellektning diagnostikasi, aqliy taraqqiyotning psixologik asoslarini o'rganish**



**ko'pgina izlanuvchilarning tadqiqot predmeti bo'lib xizmat qilgan.** Intellect muammosi jahon psixologiyasida keng ko'lamda o'rganilishiga qaramasdan, hozirgi davr psixologiya fanining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Insonni aqliy rivojlantirish masalasi kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida mutafakkirlar hamda faylasuf, tarixchi, psixolog va pedagog olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Buni, birinchi navbatda, Sharq allomalari tomonidan yaratilgan ilmiy-axloqiy asarlarda ko'rish mumkin. Qomusiy olimlar Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning barkamol insonning aqliy tarbiyasida ilm-fanning o'rni haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.

Olimlardan G.Yu.Ayzenk, L.S. Vigotskiy, M.G.Davletshin, D.Dyui, V.M.Karimova, A.N.Markova, V.S.Merlin, L.M.Mitina, R.S.Nemov, A.Palmar, V.V.Pospeev, A.A.Rean, I.E.Rogov, S.L.Rubinshteyn, Fridman, E.G'oziev, Z.T.Nishonova, Sh.A. Do'stmuxammedova, X.A.Ruhiyeva kabilarning tadqiqotlarida **talabalarning aqliy rivojlanishini tashqil etishning ijtimoiy-psixologik mohiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.** Shuningdek, ularda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy qobiliyati, ehtiyoji, psixologik xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillar hamda ijtimoiy muhitning ta'siri masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Ilmiy adabiyotlarning kompleks o'rganilishi va tahlil etilishi shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur muammo jahon psixologiya fanida XX asr boshlaridan o'rganilib kelinmoqda. Muammo masalalari, ayniqsa G'arb psixologiyasida ayrim olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan, biroq, O'zbekiston uchun uning zarur va nozik jabhasi ob'ekti sifatida kam tadqiq etilgan. XX asrning boshlarida fransuz psixologlari A.Bine va T.Simon maxsus testlar yordamida aqliy iqtidorlilik darajasini aniqlash masalasini qo'ydilar. Ular intellektning keng tarqalgan pragmatik talqini turli topshiriqlarni bajara olish qobiliyatida, ijtimoiy-madaniy hayotga tez kirisha olishda, muvaffaqiyatli moslasha olishida ko'rinadi, degan xulosaga keldilar. Shuning asosida hech qanday madaniy taassurotlarga bog'lik bo'lmagan intellektning o'zgarmas mustahkam stukturasi mavjudligi g'oyasi ilgari suriladi.

Jeneva genetik psixologiya maktabi asoschilaridan J.Piaje, V.Shtern va boshqalar intellekt hayotning turli sharoitlariga biopsixologik moslashish (adaptatsiya)dir deb qaraydilar. J.Piaje tadqiqotlarida bola intellekti sifat jihatidan farq qiluvchi 2 bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchisi nutqda o'z ifodasini topsa, ikkinchi bosqichda intellekt o'ziga xos aqliy operatsiyalarni amalga oshiradi, bu uning mohiyatini o'zida ifoda etadi. G'arb psixologiyasida, xususan J. Piajening asarlarida intellektning rivojlanish dinamikasini, uning psixologik asoslarini o'rganishimiz mumkin. U asosan turli yoshdagi bolalarda tadqiqotlar olib borib, juda muhim xulosalarga kelgan. Uning asosiy tadqiqotlari "Реч и мышление ребенка" (1923), "Рождение интеллекта у ребенка" (1936). "Суждение и умозаключение ребенка" (1936), "Психология интеллекта" (1946) va boshqa asarlarida o'z ifodasini topgan.



J.Piaje o'zining eng dastlabki ishlarida shunday yozadi: "Biz bolaning ongini uning xulq-atvori orqali bilamiz, lekin shu xulq-atvorga suyangan holda uning ongini tiklashimiz, mazmunini o'rganishimiz mumkin". Demak, J.Piajedda xulqning psixik komponentlarning birligi namoyon bo'ladi, harakat-bajaruvchi sifatida bir qator omillarni o'z ichiga oladi. **Talabalar ilmiy salohiyatining oshirilishi va u orqali mukammallikka erishish vositasi sifatida axloqiy qadriyatlar va ong osti psixikasini chuqur tahlil etish lozim.**

Intellektning ijodiy mahsuldorligi komponentini o'rganish harakati Geshtalt psixologiya maktabi vaqillari tomonidan boshlandi. (M. Vartxeymer, V.Keler). Shunday qilib, bu borada ko'pgina tadqiqotlar olib borilgan va "intellekt faktori" asosining bir qanchasi farqlangan. (1-2dan 120 tagacha.) Lekin bunday yondashish intellektning yahlitligini tushuntirishda bir muncha to'sqinlik qiladi. Rus psixologiyasida intellektning yahlitligi va uning shaxs bilan bog'liqligi tomonidan yondashishiladi. Xususan, rus psixologlaridan L.S. Vigotskiy, P.P.Blonskiy A.A.Smirnov, B.G. Ananev, D.B.Elkonin, P.Ya.Galperin va ularning shogirdlari turli yopidagi odamlarning intellektini diagnostika qilish, rivojlanish dinamikasini va psixologik jihatlarini o'rganishga harakat qilganlar. O'zbekiston Respublikasida intellekt masalasi, yosh davrlarining o'ziga xos jihatlari borasida olib borilgan ilmiy-psixologik ishlarining asoschilaridan biri bu professor M.Voxidov edi. Shu bilan birga o'zbek psixologlaridan M.G.Davletshin, E.E.G'oziev, R.Gaynutdinov, V.Tokareva, B.R.Qodirov, N.S.Safoev, A.Jabborov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova, Sh.A. Do'stmuxammedova, K.B.Qodirov, B.Sirliyev, D.Arzikulov, R.Asomova, S.Jo'raeva va boshqalarning tadqiqot muammosiga oid karashlari nazariy tahlil qilingan. Shu narsani ta'kidlab o'tish kerakki, har bir yosh davrining o'z xos rivojlanish qonunlari, psixologik xususiyatlari mavjud. Bu borada psixologiyada juda katta ishlar qilingan, ammo talaba intellektining diagnostikasi, uning rivojlanish xususiyatlarininng o'ziga xos asoslari juda kam o'rganilgan.

- **O'zbekiston Respublikasida demokratik boshqaruv tamoyillariga asoslangan huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy sohalarda tub islohotlar olib borilayotgan bir sharoitda yoshlarning intellektual salohiyatini yuksak darajaga ko'tarish, bu borada talabalarning kasbiy shakllanishida intellekt darajasini aniqlash va dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu yo'lda samarali faoliyat tashqil etilayotgan mazkur sharoitda barkamol avlodni tarbiyalash muammolarining ijobiy hal etilishi respublika aholisining yagona, mushtarak ijtimoiy maqsadining asoslaridan biridir.**

O'zbekiston Respublikasida yoshlarning bilim olishlarini izchil, tizimli, uzviy, maqsadli tashqil etish, ularni jamiyatning faol a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatishlariga erishish, eng avvalo, mazkur masalaning dolzarb pedagogik-psixologik muammo sifatida keng ko'lamlil va chuqur tadqiq etilishini taqozo etadi. Yoshlarning ijtimoiy voqe'lik hodisalariga to'g'ri baho bera olishlari, ijtimoiy o'zgarishlar xususida shaxsiy



fikrga ega bo'lishlari ma'lum darajada ularning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlarini talab etadi. Talabalar intellekti darajasini diagnostika qilish yoshlarda keng dunyoqarashni shakllantirishning shart-sharoitlari, omillarini aniqlashga imkon beradi.

Hozirgi paytda aqlan zukko, kreativ qobiliyatli, izlanuvchan, mustaqil mulohaza yurituvchi o'g'il va qizlarga eng qulay shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratish davr talabidir. Mazkur nuqtayi nazardan muammoga yondashish iste'dodli yoshlarni izlab topish, ularga oqilona ko'rsatma berish, muayyan yo'lga solish maqsadga muvofiq, chunki ularning har qaysisiga xos bo'lgan individual xususiyatlar, ichki kuch-quvvat, yashirin imkoniyatlarni ochish, takomillashtirish, taraqqiylashtirish, ta'sir o'tkazuvchi omilkor vositalar topish, ya'ni ularni jamiyat ehtiyoji, talabi, rivoji imkoniyatiga mos ravishda maqsadga muvofiq yo'naltirish xalqlarning azaliy orzu-umidlari, istiqbol rejalari, xohish prodalarining ushalish negizidir.

- **Talabalar intellektining o'rganilganlik holati**

Intellekt muammosi faqat xorijdagina emas, balki sobiq sho'ro psixologiyasida ham juda keng ko'lamda tadqiq qilingan va bu izlanishlar jadal sur'at bilan davom ettirilmogda. Olib borilgan tadqiqotlarning natijalari yuzasidan quyida batafsilroq to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Aqliy taraqqiyot muammosi sobiq sho'ro psixologiyasi fanida umumiy qonuniyatlar ta'lim jarayonida, muomala negizida turli yoshdagi insonlar, jinslar o'rtasidagi tafovutlar nuqtai nazaridan o'rganilgan. Uzluksiz ravishda o'tkazilgan izlanishlar natijasida bir qator psixologik konsepsiyalar vujudga keldiki, ularning har qaysisida intellekt tushunchasi o'ziga xos tarzda tushuntirildi va talqin etildi.

Quyida ulardan ayrimlarini sanashimiz mumkin.

*Jumladan:*

1. Muammolarni yechish uslubi va strategiyasi.
2. Aqliy operatsiyalar tizimi (sistemasi, tuzilmasi).
3. Vaziyatlarga alohida yondashishning samaradorligi yoki mahsuldorligi (ma'noviy, miqdoriy, mantiqiy jabhalari ko'zda tutilmogda), uning funksional tomonlari.
4. Alohida, yakkahol (individual) yondashish, bilish jarayoni shaxsdan faollikni taqozo qilish xususiyati.
5. Kognitiv uslub va boshqalar.

**Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqoridagi kabi omillar asnosida talaba psixologiyasi intellektini rivojlantirish qulayliklar yaratadi, bir so'z bilan aytganda, maqsadga erishish o'zining ierarxiyasiga, shuningdek, samarali va tezroq amalga oshishiga ko'mak beradi.**

Sobiq sho'ro psixologiyasida aqliy taraqqiyot muammosi L.S. Vigotskiy, B.G.Ananev, S.L.Rubinshteyn, B.M.Teplov, V.N.Myasishchev, N.S.Leytis, Ye.N.Kabanova-Meller, D.N.Bogoyavlenskiy, S.F.Juykov, Ya.A.Ponomaryov, A.N.Leontev, P.Ya.Galperin, L.V.Zankov, N.P.Blonskiy, V.A.Kruteskiy, A.M.Matyushkin, N.F. Talizina, .I.Kalmikova, O.K.Tixomirov, A.A.Brushlinskiy va



boshqa psixologlar tomonidan keng ko‘lamda o‘rganilgan. Bu masala bilan shug‘ullangan psixologlar orasida hamyurtlarimiz M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziev, V.A.Tokareva, T.Nishonovalarning izlanishlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu kabi masalalarni o‘rganish va tadqiq qilish tarixiga nazar tashlagudek bo‘lsak, u holda sobiq sho‘ro psixologiyasining rivojlanishi ana shu masaladan boshlanganligiga guvohlik beradi. 20-30-yillarda aqliy taraqqiyot bilan eng samarali shug‘ullangan tadqiqotchilar to‘g‘risida mulohaza yuritilganda, dastavval mashhur psixolog S.L.Rubinshteynning nomi alohida hurmat bilan tilga olinadi. S.L.Rubinshteynning **“...tafakkur jarayoni muammoli vaziyatdan boshlanadi...”**, degan purma’no fikri hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Uning fikricha, insonda biron narsani anglashga nisbatan ehtiyoj tug‘ilgandan keyin, u fikr yuritishga harakat qiladi. Faqat bir muammo yoki savoldan, taajjublanish, hayratga tushish, yoyinki, anglab yeta olmaslikdan, goho kognitiv ziddiyatdan kelib chiqadi. Mazkur muammoli vaziyat shaxsni fikr yuritish jarayoniga tortadi, uning faoliyatini noaniq masalani hal qilishga undaydi. A.M.Matyushkin nazariyasiga binoan, talqin qilinayotgan muammoli vaziyatda yangilikni anglab yetmaslik, uni yechish zarur bo‘lgan aqliy faoliyatni amalga oshirishning uddasidan chiqmaslik, mazkur faoliyatda yechilishi shart hisoblangan masalaga vositalar va shart-sharoitlarga taalluqli noma’lumlik, qo‘yilgan topshiriqni fikr yuritish operatsiyalari yordamida yechish jarayonlari ishtirok etadi.

Sobiq sho‘ro psixologiyasi fanida ta’lim va taraqqiyotning o‘zaro munosabati masalasi keng ko‘lamda o‘rganilgan bo‘lib, unga taalluqli xilma-xil nazariyalar, konsepsiyalar, turli ilmiy jabhalar, pozitsiyalar, yo‘nalishlar, yondashishlar mavjuddir.

Atoqli psixolog L.S. Vigotskiy ta’lim va taraqqiyot muammosini o‘rganishga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan olimlardan biridir. L.S. Vigotskiy ushbu muammoning ijtimoiy-tarixiy tomoni tadqiq qilib, bilimlarni o‘zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatida ishtirok etish jarayonidir, degan xulosaga keladi. U olga surgan psixik funksiyalar taraqqiyotning madaniy-tarixiy nazariyasiga ko‘ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning "tabiiy" shakl (ko‘rinishi) ni bevosita qayta qurgan holda turli alomatlar bilan avval tashqi, so‘ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, "madaniy" shakli (formasi)ni egallash tushuniladi.

L.S. Vigotskiy ta’lim va taraqqiyot o‘rtasidagi o‘zaro munosabat masalasiga to‘xtalib, ta’lim hamma vaqt taraqqiyotdan oldida borishi to‘g‘risidagi xulosani ilgari suradi. U bu bilan xorij olimlari E. Torndayk (AQSh) va J.Piaje (Shveysariya) larning ta’lim va taraqqiyotini aynan bir narsa deb tushuntirishiga keskin qarshi chiqadi hamda o‘zining e’tirozlarini oqilona talqin qilib berishga intiladi.

L.S. Vigotskiy va V.R.Saxarov o‘zaro hamkorlikda *talabalar aqliy taraqqiyoti darajasini aniqlashning muhim metodikasini* ishlab chiqdilar. Ular mazkur metodikani **"Sun‘iy tushunchalarni shakllantirish metodi"** deb atadilar. Mualliflar metodika negiziga geometrik shakllarni turkumlarga ajratish, tasniflash jarayonini tanladilar, binobarin, ushbu metodika aqliy taraqqiyotning me’zoni rolini o‘ynashga imkoniyat yaratib beruvchi klassifikatsiya operatsiyasi ustida fikr yuritishni taqozo qildi. Boshqacha so‘z bilan uni nomlanganda, ikkpektama stimulizatsiya ma’nosini anglatadi



(geometrik shakllar, ularning ranglari, hajmi, bundan tashqari ularga bitib qo'yilgan notanish, ma'no anglatmaydigan yozuvlar va boshqalar).

- **Insonning aqliy jihatdan rivojlanishini ko'pgina psixolog olimlar turlicha mexanizmlar, manbalar, omillar (faktorlar) bilan bog'lab tushuntirdilar. Masalan, atoqli psixolog Blonskiy talabalarning aqliy rivojlanishini to'gridan-to'g'ri maktab o'quv dasturlarining mazmuniga bog'lab talqin qilishga intildi.**

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, bir qator sho'ro psixologlari, jumladan, S.L.Rubinshteyn va uning shogirdlari aqliy taraqqiyotni belgilovchi me'zon, o'lchov (parametr) tariqasida umumlashtirish (tafakkur operatsiyasi ma'nosida) va aqliy harakatlarning yangi holat va vaziyatga oydinlik kiritishga harakat qilganlar.

Tarix va ilmiy faoliyat jarayonlari shuni ko'rsatadiki, talabalar intellektual salohiyatini rivojlantirishni, uning omillarini va boshqa bir qator masalalarni aynan tarix guvohligi, shuningdek, amaliyot va nazariya uyg'unligini, avvalgi xatolardan bugun xulosa chiqarib, talabalar aqliy salohiyatlari oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining birinchi chaqiriq IX sessiyasida 1997-yil 29-avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingandan so'ng o'tgan vaqt davomida respublikamiz miqyosida yosh avlodga berilayotgan ta'limni takomillashtirish, uning yangi turlari va texnologiyalarini amaliyotda joriy etish, kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov o'sib kelayotgan yosh avlod kamolotini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy ahamiyati xaqida o'zlarining ko'plab nutqlarida, asarlarida ta'kidlaganlar. Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli ma'ruzalarida to'xtalib o'tganlar. Prezidentimiz respublikamizda asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri kadrlar masalasi ekanligini ko'rsatib, quyidagi fikrlarni bildiradi: "Biz oldimizga qanday vazifa qo'yamaylik, qanday muammoni yechish zarurati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq".

Darhaqiqat, respublikamiz taraqqiyotga erishishini ko'p jihatdan kadrlar masalasining qanday hal qilinganligi belgilab beradi. Shu bois oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalarni kasbiy yo'naltirish, ularni o'z kasbini sevuvchi yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalash hozirgi vaqtda oliy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. **Kasbiy yo'naltirishdan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni o'zi tanlagan kasbga ongli ravishda tayyorlashdan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsni bo'lgusi kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida shakllantirishni, uni bozor iqtisodiyoti sharoitiga xos munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashib borishga qodir bo'ladigan darajaga yetkazishni nazarda tutadi.**



Hozirgi davrda respublikamizda bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilayotgan. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan holda kasb-hunarga yo'naltirish sohasida mavjud bo'lgan ilmiy xulosalarni ta'lim islohotlari bosh maqsadidan kelib chiqqan xolda qayta ko'rib chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Talabaning kasbiy shakllanishi oliygohda ta'lim olish jarayonidan boshlanib, kasbiy yo'nalغانlikning tarkib topishi hal qiluvchi hodisalardan biri sifatida gavdalanadi. Kasbiy yo'nalغانlik bu talabaning o'z bilim, tajriba va qobiliyatini tanlagan kasb soxasida qo'llash uchun shaxsiy intilishidir. Shaxsning kasbiy yo'nalغانligi kasbga nisbatan ijobiy munosabat, unga qiziqish va layoqat, shaxsiy tayyorgarlikni takomillashtirish istagi, o'z kasbi soxasida mehnat qilib, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, kasbiy yo'nalغانlik kasbiy faoliyatning maqsad va vazifalarini tushunishni hamla qabul qilishni nazarda tutadi.

Bo'lajak mutaxassislarning motivatsiyasi, qadriyat yo'nalishlari, ijtimoiy ustanovkalari kasbiy yo'nalغانlikning tarkibiy qismlaridandir. Bizning fikrimizcha, kasbiy yo'nalغانlik mazmunidagi ijobiy o'zgarishlar bo'lg'usi kasb bilan bog'liq bo'lib, motivlar mustaxkamlanishida ko'rinadi, ya'ni ish bo'yicha o'z majburiyatlarini yaxshi bajarishga intilish, bilimdon mutaxassis sifatida o'zini ko'rsatish, murakkab o'quv vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga intilish, yutuqlarga erishish istagi kuchayadi. Talabalarda kasbiy yo'nalغانlikni shakllantirish uchun kasbni egallash imkoniyatlari kengligiga, bo'lg'usi ishning kelajagiga ishonch hosil qilish, mehnat an'alarini targ'ib qilish, kasbning ishlab chiqarish va estetik tomonlarini, uning ijodiy karakterini ko'rsatish zarur. Bugungi kunda talaba yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini to'g'ri tashqil etish, talabalarda o'z kasbiga qiziqishni rivojlantirish, ularning kasbiy yo'nalغانlik dinamikasi, kasbiy yo'nalغانlikda jins farqlari masalalarini ilmiy asoslangan holda hal qilishning nihoyatda dolzarbligidan tushunib yetdimki, bu borada tadqiqot faoliyatini kuchaytirish va ko'paytirish lozim.

- Kasbiy yo'nalغانlik muammosi xorij psixologlari talqinida

G'arb psixologiyasida XX asrning 30-40 yillaridayok kasbiy faoliyatda shaxsning alohida xususiyatlarini o'rganishning o'zi yetarli emasligi tushunila boshlandi. Hozirgi vaqtda ko'pgina mutaxassislar shaxs nuqtai nazaridan yondashish shunchaki kasbiy faoliyatda insonning individual o'ziga xosligini xisobga olish emas, balki mutaxassis shaxsining shakllanish yo'llarini o'rganishdan iborat, degan fikrga moyildirlar. Kasbiy yo'nalغانlik va unini shaxs individual-psixologik xususiyatlariga bog'liqligi masalalari bir qator xorij psixologlari tomonidan turli mutaxassislikdagi talabalarda o'tkazilgan tadqiqot ishlari, ilgari surilgan nazariyalar, yondashuvlar, fikrlar orkali ochib berisha harakat qilingan.

Bizningcha, kasbiy yo'nalغانlikni o'rganuvchi konsepsiyalardan ko'proq mashhur bo'lgani, uni butun uzluksiz jarayon sifatida tadqiq etuvchi D.E. Syuper va T.V.Kudryavsevlarning konsepsiyalaridir.

D.E. Syuserning konsepsiyasi XX asr 50 yillarining o'rtasidan rivojlana boshladi va kasbiy yo'naltirish muammosini tadqiq qilishning shaxsiy statistik yondashuviga



o'ziga xos javob bo'ldi. T.V. Kudryavsev konsepsiyasining asosiy tuzilishi "kasbiy shakllanish" tushunchasi orqali namoyon bo'ladi. "Kasbiy shakllanish" biror bir kasbiy ta'lim muassasasining ta'lim va tarbiya davrini qamrab oladigan qisqa muddatli faoliyat emas. U to'rtta asosiy bosqichlarni qamrab oluvchi uzoq, dinamik jarayon. Har bir bosqichga o'tish avvalgisining kechishida amalga oshiriladi va sub'ektda bir kator qarama-qarshiliklar ba'zan, hattoki, nizoli vaziyatlarning kelib chiqishida namoyon bo'ladi. Ushbu konsepsiyada kasbiy rivojlanish uchta to'g'ridan to'g'ri yo'nalishga bo'lingan. mutaxassisning motivatsion-ehtiyoj sohasi, kasbiy faoliyat operatsional-texnik elementlarining shakllanishi va nihoyat, kasbiy o'z-o'zini anglash. Muallif shaxsning kasbiy shakllanishini to'rtta asosiy bosqichga ajratadi:

- Birinchi bosqich umumta'lim maktabida kasbiy maqsadlar, mehnatning turli ko'rinishlari haqida dastlabki tasavvurlar shakllanishini o'z ichiga oladi. Bu bosqichda ijtimoiy va psixologik asoslangan kasb tanlash ro'y beradi.

- Ikkinchi bosqich shaxsiy kasbiy tayyorgarlik, ya'ni tanlagan kasbiy faoliyatga maqsadga muvofiq tayyorgarlik bosqichi. Ushbu bosqichda shakllanadigan yangi sifat kasbiy o'zini o'zi anglashdir. Shuningdek, bu davrda kasbiy faoliyatning adekvat motivlari faol shakllanadi.

- Uchinchi bosqich kasbga kirishish jarayonidan iborat bo'ladi. Bu jarayon mutaxassislikni faol egallash va ishlab chiqarish jamoasida o'zining o'rnini tanish bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqich mezonlari yukori samaradorlik, zarur kasbiy sifatlarning aniq rivojlanishi darajasi va psixologik qulaylikdir.

- To'rtinchi bosqich shaxsning mustaqil kasbiy mehnatida o'zini to'liq namoyon etishidir.

Taklif etilayotgan konsepsiya kasbga yo'naltirish jarayoniga integrativ nuqtai nazardan karash imkonini beradi va shuning bilan kasbiy shakllanishning bir qator umumiy qonuniyatlarini ochishga shuningdek, mutaxassis shaxsning shakllanish muammosini o'rganish istiqbollari belgilash imkoniyatini beradi.

Oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonida ijtimoiy, mutaxassislik va boshqa fanlarni o'qitish, jamoat ishlarida ishtirok etish ta'sirida talabalarda shaxsning kasbiy yo'nalganligi shakllanadi, ya'ni o'z bilimlari, tajribasi va qobiliyatini tanlagan kasbi sohasida qo'llashga shaxsiy intilish paydo bo'ladi. Qiziqishlar, ustanovkalar, ideallar, e'tiqodlar, qadriyatlar, qarashlar kasbiy yo'nalganlik xislatlari va tarkibiy qismlaridir. Bu tarkibiy qismlar talabalarda kasbiy yo'nalganlik shakllanganligi va rivojlanganligining ko'rsatkichlari bo'lib hisoblanadi, barkarorligi yoki ustunligi bilan xarakterlanadi. Ko'proq g'oyaviy barqaror kasbiy yo'nalganlik ijtimoiy ahamiyatli hisoblanadi. Qat'iy shakllangan va shaxs xislatiga aylangan bunday kasbiy yo'nalganlik motivlar darajasiga hamda faoliyatning mahsuldorligiga ta'sir qiladi.

Kasbiy yo'nalganlik mazmunidagi ijobiy o'zgarishlar bo'lgusi kasb bilan bog'lik motivlar mustahkamlanishida namoyon bo'ladi: o'z ish majburiyatlarini yaxshi bajarishga intilish, mohir, yetuk mutaxassis sifatida o'zini ko'rsatish, murakkab o'quv vazifalari, masalalarini aniq echishga intilish, ma'suliyat hissining kuchayishi, ishda muvaffaqiyatga erishish istagi.





Shu bilan birga ijtimoiy burchga, o'ziga, intilishlariga, hislariga munosabatning rivojlanishi bilan kasbiy motivlarning mazmuni o'zgaradi: ularning ba'zilari muhim, ayrimlari esa muhim emas deb baholanadi. Ba'zan kasbiy yo'nalganlikning susayish hollari ham uchraydi (ta'limdagi kutilmagan qiyinchiliklar va boshqalar ta'sirida).

V.A.Sonin tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, talabalarda kasbiy yo'nalganlikni muvaffaqiyatli rivojlantirish omillaridan biri ularda Oliy o'quv yurtiga kirgan talaba ijtimoiy-foydali, mazmunli faoliyat bilan doimo shug'ullanadi, natijada unda shaxsning kasbiy yo'nalganligi va kasbiy motivlar shakllanadi. Kasbiy yo'nalganlik muvaffaqiyatli shakllanishining doimiy omillaridan biri talabalar ta'limi va tarbiyasi jarayonida uning mazmuni va tuzilishidagi o'zgarishlarni o'rganish hisoblanadi. Bu o'zgarishlarning ko'rsatkichlarini aniqlash bilan bog'liqdir: talaba oldin qanday maqsadlarni qo'ygan edi, hozir qanday maqsadlar qo'ymoqda, turli xil faoliyatlarda u o'zini qanday namoyon etadi, uning kasbga munosabati qanday, qiziqishlari, ideallari, ustanovkalarining xususiyatlari va boshqalar.

- Talaba shaxsining kasbiy yo'nalganligini shakllantirish usullaridan biri kasbni egallash imkoniyatlariga ishonirish, bo'lg'usi kasbning kelajagiga ishonch hosil qilish, mexnat an'analarini targ'ib qilish, kasbning ishlab chiqarish va estetik jihatlarini, uning ijodiy xarakterini ko'rsatishdir. Boshqa usuli talabalarning jamoat ishlari, o'qishi, faoliyatlarini ularning bo'lg'usi kasbiy faoliyatlari talabalarini hisobga olib tashkil etishdir. Kasbiy yo'nalganlik mutaxassisning oliy o'quv yurtini tugatganidan keyingi faoliyatiga mazmuni va amalga oshirish sharoitiga psixologik jihatdan yaqin bo'lgan kerakli xislatlarni egallash imkonini beradi. Bunga talabalarning yuqori kurslardagi ishlab chiqarish amaliyotlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Talabaning kasbiy yo'nalganligini mustahkamlashda ularning ilmiy ishlarda ishtirok etishi katta rol o'ynaydi. Yuqori malakali mutaxassisni tayyorlashning majburiy shartlaridan biri talabalarning ilmiy jamiyatlarda, konstruktorlik byurolarida, ishlab chiqarish buyurtmalariga asosan amaliy bitiruv malakaviy ishlarini bajarish kiradi. Oliy o'quv yurtining xar bir bitiruvisi olim bo'lmasligi mumkin, lekin ilmiy tadqiqot malakalarini har biri egallashi zarur. Bunga hozirda oliy o'quv yurtlarida tashkil etilgan innovatsion guruhlarini misol sifatida keltirish mumkin. Iqtidorli talabalar bu guruhlarda professor-o'qituvchilar rahbarligida faoliyat ko'rsatib, o'zlarining bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalarini yozadilar. O'qituvchilarning shaxsiy namunasi ularning kasbga munosabatlari xam talabalarda kasbiy yo'nalganlikni shakllantiruvchi omillardan xisoblanadi. Kasbga nisbatan ijobiy munosabat unga bo'lgan qiziqishda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, kasb taplash jarayoni kasbiy qiziqishlarning vujudga kelishidan boshlanadi. Oliy o'quv yurtida kasbiy qiziqishlar tanlagan kasbning maqsadi va ahamiyatini tushuntirish yo'li bilan, nazariy muammolarni chuqur o'rganish, amaliy va laboratoriya mang'ulotlarida shakllantiriladi.

Rus psixologiyasida kasbiy yo'nalganlik tushunchasiga ma'no jihatidan kasbiy o'zini o'zi anglash, kasbiy dunyoqarash, kasbiy pozitsiya tushunchalari ko'proq yaqin. Ayniqsa, rus psixologlari asarlarida kasbiy o'zini o'zi anglash tushunchasi kengroq tarqalgan. Kasbiy o'zini o'zi anglash odatda shaxsning o'z-o'zini anglash umumiy



tuzilishiga tegishli, bunda kasbiy diqqat, tafakkur, xotira, affekt, persepsiya, iroda va boshqalar nazarda tutiladi.

G.V. Akopovning ta'kidlashicha, ba'zan kasbiy o'zini o'zi anglash kasbiy faoliyat bilan bog'liq shaxsning barcha xususiyatlari kabi keng tushuniladi. Muallifning fikricha, kasbiy o'zini o'zi anglanganlik kasbning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati bilan belgilanadi. Tadqiqotchi kasbiy o'zini o'zi anglashni kasbga, shu kasb egalariga, mutaxassis sifatida odamning o'ziga munosabati, kasbiy ilm va malaka darajasi, kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbiy istiqbol muvaffaqiyatsizliklarini anglash sifatida ta'riflaydi hamda K.M.Gurevichning ta'kidlashicha, neyrodinamikaning o'ziga xosligi va temperamentning ba'zi xususiyatlari (xususan, ekstra va introversiya) ko'pgina kasbiy faoliyat turlarida ahamiyat kasb etadi. Biroq, bu psixologik fenomenlar shaxs xususiyatlari ro'yxatiga kiritilmasa-da, individ psixikasining xususiyatlari sifatida ko'riladi. Bo'lajak mutaxassislarning motivatsiyalari, kadriyat yo'nalishlari, ijtimoiy ustanovkalari kasbiy yo'nalganlikning komponentlaridandir. Adabiyotlar taxlilining ko'rsatishicha, aynan shu shaxs tuzilmalari ijtimoiy axamiyatga molik xulq-atvorning boshqaruv tizimini tashqil qiluvchi unsurlar sifatida qaraladi. Inson xulq-atvorini boshqarish esa yo'nalganlikni asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatga kirish shaxs shakllanishini muhim bosqichi hisoblanadi, chunki bunda inson yangi, favqulotda ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy guruhga qo'shiladi. Shu ma'noda, kasbiy shakllanish jarayonini tadqiq etish insonni ongli tanlov asosida katta ijtimoiy guruhga kirishuvini kuzatish imkonini beradi.

Individual o'ziga xosliklar hayot yo'lini tanlashda xam namoyon bo'ladi. Kasb tanlash va uni egallash kasbiy o'z-o'zini anglashdan boshlanadi. Bu bosqichda o'quvchilar o'zlarining psixologik va psixofiziologik salohiyatini hisobga olgan hamda o'zlari uchun bo'lajak faoliyat sohasini tanlash vazifasini aniq shakllantirgan bo'lishi kerak. Bu vaqtda o'quvchilarda kasbga nisbatan anik munosabat shakllanadi, kasbga mos o'quv fanlarini tanlash amalga oshiriladi. I.Konning ta'kidlashicha, kasbiy o'z-o'zini anglash bolalikdan boshlanadi, bunda bola o'ziga kasbiy rollarni Talabalarda kasbiy qobiliyatlarni shakllantirishning shartlaridan biri sifatida bo'lg'usi kasbga qiziqish, mehnatsevarlik, tirishqoqlik, o'z tayyorgarligi uchun javobgarlikni tushunish sifatini rivojlantirish o'ta muhimdir. Bunday tarbiyaviy ta'sirning asosiy yo'nalishi talabalardagi kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishda o'zini o'zi tarbiyalashga yo'naltirishdan iborat bo'lishi kerak.

Kasbga yo'naltirishda hal qiluvchi davr talabaning o'z istagi yoki - zaruratiga ko'ra tanlagan va uning mehnat yo'lini belgilaydigan kasbga kirish davridir. Bu davr shuning uchun ham hal qiluvchiqi, kishining mehnat yo'li qanday bo'lishi, bu yo'lda u qanchalik uzoq vaqt muvaffaqiyatli bora olishi, ishlab chiqarishda korxonalar ishchilari orasidagi muomala jarayonida endi talaba emas, balki boshqa rolni malakali muhandis rolini qanchalik oson yoki qiyin, tez yoki sekin o'zlashtirganligiga bog'liqdir. Bu jarayonning sifati va sur'ati talaba bo'lajak mutaxassisda tegishli motivatsiya qanchalik kuchli ekaniga bog'liq bo'lganligini anglatadi. Motivatsiya kasbiy yo'nalganlikning muxim tarkibiy kismidir, chunki u odamning xulq-atvorini xayotiy kundalik



vaziyatlarda belgilaydi. Motivatsiya shaxs tuzilishida etakchi o'ringa ega va xulk-atvor, faoliyatni harakatga keltiruvchi kuchni aniqlantirish uchun qo'llaniladigan asosiy tushunchalardan biridir. Bizning Tadqiqotda ham motivatsiya "sub'ektni faollikka undovchi va uning yo'nalganligini aniklovchi sabab" sifatida tushunildi.

P.P. Kalinina uchun shaxs rivojlanishida motivatsiya shakllanishi muhimdir. Inson hayoti davomida faoliyatning turli ko'rinishlariga kirishadi, bu jarayon unda motivlarning perarxik tizimi shakllanishi va qayta qurilishi bilan uygup kechadi, shakllangan motivlar tizimi esa shaxsning asosini (negizini) tashqil qiladi. Motivlar shaxsning mustaxkam tarkibiy kislmlari rolida namoyon bo'ladi. Shuning uchun shaxsni tavsiflatda ayrim Tadqiqotchilar motivlar perarxiyasida qanday motivlar dominant o'rinni egallashini aniqlashga urinadilar. Aynan shunday yo'l bilan shaxsning yo'nalganligi va uning ma'naviy barqarorligini aniqlashga xarakat qilinadi. Avval ham ta'kidlanganidek, kasbiy faoliyat motivatsiyasining shakllanishi qisqa muddatli jarayon emas. Kasbiy motivlar, kasbiy yo'nalganlik o'rta maktabdagi ta'lim jarayonida vujudga keladi, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, ushbu asoslar maktabgacha yosh davridayoq shakllanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jahonda har bir mamlakat ta'lim tizimida zehnli, iqtidorli, qobiliyatli va ijodkor insonlarni o'qitish hamda ularni jamiyat taraqqiyotiga tayyorlash ustuvor vazifa sifatida muhim ahamiyatga ega. YuNESKOning ma'lumotlariga ko'ra, "tur mush uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi, barqaror rivojlanishga erishish maqsadini ta'minlovchi maskan oliy ta'lim muassasasi bo'lib qolmoqda va dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim olishga extiyoj bugungi kunda jadal o'sib bormoqda. Bu holat statistik ma'lumotlarga ko'ra, rivojlanmagan mamlakatlarning 8% yoshlari universitetlarda tahsil olayotgan bo'lsalar, eng rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 74%ni tashqil qilayotganligi qayd etilgan". Oliy ma'lumotga ega bo'lish jahon miqyosida muhim ehtiyoj sifatida qaralmoqda, uni qondirishda ta'lim jarayoni mazmunini boyitish, pedagog faoliyatini hamda talabalar aqliy qobiliyati, tafakkurini rivojlantirish eng dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Jahon miqyosida tafakkur psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarning alohida yo'nalishi talabalarda nazariy va amaliy, innovatsion, kreativ, kompozitsion, tanqidiy va texnik tafakkurning shakllanish xususiyatlari, vizual tafakkurni rivojlantirishda ta'lim resurlari ta'siri, axborot texnologiyalarining ahamiyati, fikr yuritish madaniyatini shakllantirish, xorijiy tillarni o'rganish orqali tafakkurni o'stirish muammolari bo'yicha o'tkaziladi. Mazkur yo'nalishda, ayniqsa, talabalik davrida tafakkurni rivojlantirishning ustuvor usullari va shart-sharoitlarini ifodalovchi psixologik mexanizmlarni aniqlash hamda joriy etish muammosiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda talabalar tafakkurini rivojlantirish uslublariga, ijodiy tafakkurni shartlovchi originallik, egiluvchanlik, aniqlik hamda tezkorlik kabi xususiyatlarga, muammoli ta'lim topshiriqlari, hamkorlik faoliyatiga bu sohada dolzarb masalalar sifatida karalmoqda.

Mustaqillik yillari mamlakatimizda yoshlarning aqliy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni yaratish masalasiga alohida e'tibor berib



kelinmoqda. Xususan, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida "Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan. Vatanga sodiq, qat‘iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" vazifalari belgilangan. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan choralar tarkibida, jumladan, talabalarning ta‘lim jarayonidagi faolligini yuksaltirish, kasbiy faoliyat uchun zarur bilim, ko‘nikma, malakalar egallashishi, muammolar ustida ishlashda mustaqil va ijodiy yondashuvini ta‘minlovchi tafakkurni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini takomillashtirish borasida ilmiy faoliyatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish lozimligi muhim omil sanalmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni (2016), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘grisida”gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa **normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga, uning ijrosining samarasi o‘laroq, talabalar ilmiy salohiyatini oshirish jarayonidagi ayrim kompetensiyalar va jihatlarni tadqiq qilishga mazkur mustaqil ishi muayyan darajada xizmat qiladi.**